

Xalq so‘zi

O‘zbekiston — kelajagi buyuk davlat


2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan ● WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz ● 2026-yil 8-sentyabr, № 186 (9357) Seshanba

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

O‘ZBEKISTON PREZIDENTI JAHON BOJXONA TASHKILOTI BOSH KOTIBINI QABUL QILDI

Oұzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 7-sentabr kuni Toshkentda yettinchi Global kinologiya forumida ishtirok etish doirasida mamlakatimizda boұlib turgan Jahon bojxona tashkiloti bosh kotibi Yan Sondersni qabul qildi.



Bojxona ma’muriyatchiligini takomillashtirish, bojxona organlarining salohiyatini mustahkamlash va huquqbuzarliklarga qarshi kurashish bo‘yicha amaliy hamkorlikni yanada kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

Tashkilot ko‘magida O‘zbekiston savdoni yengillashtirish sohasidagi qator xalqaro konvensiyalarga qo‘shilgani, zamonaviy bojxona nazorati mexanizmlari joriy etilib, Bojxona xizmati faoliyatini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi ishlab chiqilgani va qabul qilingani qayd etildi.

O‘zbekistonda bojxona sohasida amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlar natijasida bugungi kunda eksport yuklarining 94 foizi va import yuklarining 87 foizi soddalashtirilgan tartibda rasmiylashtirilmoqda. Deklaratsiyalarni rasmiylashtirish vaqti 20 daqiqagacha qisqartirildi.

Bojxona organlarining tadbirkorlik subyektlari bilan samarali hamkorligini ta’minlaydigan raqamli yechimlar faol joriy etilmoqda, ma’muriy to‘siqlar qisqartirilib, korrupsiyaviy xavflar kamaytirilmoqda.

Uchrashuvda bojxona tartib-taomillarini yanada raqamlashtirish va uyg‘unlashtirish, normativ-huquqiy bazani takomillashtirish hamda kadrlarni o‘qitish va ularning malakasini oshirish masalalariga alohida e’tibor qaratildi. Yurtimizni Jahon savdo tashkilotiga a’zo bo‘lishga tayyorlash doirasida ushbu masalalarning dolzarbligi ta’kidlandi.

Yakunda hamkorlikni yanada chuqurlashtirish va bojxona ma’muriyatchiligini takomillashtirishga qaratilgan aniq chora-tadbirlarni nazarda tutuvchi “Yo‘l xaritasi”ni birgalikda ishlab chiqish va qabul qilish bo‘yicha kelishuvga erishildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

O‘ZBEKISTON PREZIDENTINING SERBIYAGA RASMIY TASHRIFI BOSHLANDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rafiqasi bilan birga rasmiy tashrif bilan Belgrad shahriga keldi.

Serbiya havo hududida O‘zbekiston yetakchisining samolyotiga mezbon mamlakat Harbiy havo kuchlarining qiruvchi uchoqlari hamrohlik qildi.

Nikola Tesla nomidagi xalqaro aeroportda oliy martabali mehmonlarni Serbiya Respublikasi Prezidenti Aleksandr Vuchich va uning rafiqasi kutib oldi.

Ikki mamlakatning davlat bayroqlari ko‘tarilib, Faxriy qorovul saf tortdi.

Shundan so‘ng O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rafiqasi bilan birga Belgrad shahrida davlatimiz rahbarining Serbiyaga tashrifi munosabati bilan tashkil etilgan rasmiy qabul marosimida ishtirok etdi.

Oliy martabali mehmonlarni Serbiya Respublikasi Prezidenti Aleksandr Vuchich, Birinchi xonimi Tamara Vuchich, Xalq majlisi Raisi Ana Brnabich, Bosh vazir Juro Matsut va boshqa rasmiy shaxslar qutladilar.

Tadbirda O‘zbekiston Prezidentining Serbiyaga ilk rasmiy tashrifining tarixiy ahamiyati, ikki mamlakat o‘rtasidagi o‘zaro manfaatli hamkorlikni yanada kengaytirish va mustahkamlash uchun yangi imkoniyatlar ochayotgani alohida ta’kidlandi.

O‘zbekiston va Serbiya xalqlari o‘rtasidagi aloqalar an’anaviy do‘stona ruhda rivojlanayotganiga e’tibor qaratildi.

O‘zbekiston delegatsiyasining tashrifi sharafiga “Kula Belgrad” osmono‘par binosi O‘zbekiston Respublikasi davlat bayrog‘i ranglarida yoritildi.

Tashrifning asosiy tadbirlari ertaga boshlanadi. Dasturga muvofiq, O‘zbekiston – Serbiya oliy darajadagi muzokaralari hamda ikki mamlakat rasmiylari va ishbilarmon doiralari vakillari ishtirokida biznes forumi o‘tkazilishi rejalashtirilgan.

Ularning yakunlari bo‘yicha ikki tomonlama hujjatlarning salmoqli to‘plamini qabul qilish ko‘zda tutilgan.

O‘zA.

AMALIY ShERIKLIK YANADA KENGAYADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 7-sentabr kuni Xitoy Kommunistik partiyasi Markaziy qo‘mitasi Xalqaro aloqalar bo‘limi mudiri Lyu Xaysin boshchiligidagi Xitoy Xalq Respublikasi delegatsiyasini qabul qildi.

Yuqori martabali mehmon davlatimiz rahbariga XXR Raisi Si Szinpinning samimiy salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

Uchrashuvda oliy darajada erishilgan kelishuvlarga muvofiq, O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasidagi ko‘p qirrali hamkorlik hamda amaliy sheriklikni yanada kengaytirish masalalari ko‘rib chiqildi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston – Xitoy har tomonlama strategik sheriklik munosabatlari yuksak darajaga ko‘tarilgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

O‘zaro tovar ayirboshlash va investitsiyalar hajmi izchil o‘smoqda, Xitoyning yetakchi kompaniyalari ishtirokida qo‘shma loyihalar va korxonalar soni ortib bormoqda.

Parlamentlararo va partiyalararo hamkorlikni mustahkamlash masalalariga alohida e’tibor berildi.

Oliy va kasbiy ta’lim sohasidagi hamkorlikni chuqurlashtirish, jumladan, mamlakatimizda Xitoyning yetakchi oliy ta’lim muassasalari filiallarini ochish muhimligi ta’kidlandi.

Uchrashuv yakunida tomonlar parlamentlararo va partiyalararo hamkorlikni kengaytirish bo‘yicha qo‘shma “Yo‘l xaritasi”ni qabul qilishga kelishib oldilar.

IJTIMOIY ADOLAT TAMOYILLARIGA ASOSLANGAN YONDASHUV

Prezident Shavkat Mirziyoyev aholini suyultirilgan gaz bilan ta’minlash tizimini isloh qilish yuzasidan takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

Suyultirilgan gaz tabiiy gaz tarmog‘i yetib bormagan hududlarda yashovchi aholini energiya manbai bilan ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Shu bois uni o‘z vaqtida, xavfsiz va barqaror yetkazib berish odamlarning kundalik hayoti, ijtimoiy soha obyektlari faoliyati hamda hududlardagi maishiy sharoitlar bilan bevosita bog‘liq.

Taqdimotda suyultirilgan gaz resurslari va taqsimoti balansi, amaldagi yetkazib berish tizimi, narx shakllanishi, subsidiyalar va aholiga ta’siri tahlil qilindi.

Ma’lumotlarga ko‘ra, respublikada 3,8 millionga yaqin aholi hamda qariyb 2 mingta ijtimoiy soha obyektlari suyultirilgan gaz bilan ta’minlanadi. Joriy yilda aholi va ijtimoiy soha obyektlari ehtiyoji uchun 604,8 ming tonna suyultirilgan gaz yetkazib berish ko‘zda tutilgan.

Amaldagi tizimda qator muammolar saqlanib qolayotgani ko‘rsatib o‘tildi. Ayrim hududlarda suyultirilgan gaz iste’molchilarga belgilangan muddatda yetib bormayapti. Natijada aholi qo‘shimcha ehtiyojini avtomobillarga gaz quyish shoxobchalaridan bozor narxlarida xarid qilishga majbur bo‘lmoqda.

Tahlillarga ko‘ra suyultirilgan gazni 46 kundan ortiq muddatda olayotgan iste’molchilarning ulushi 22 foizni tashkil etadi. Bunday holatda ayrim oilalarning bir oylik xarajati amaldagi belgilangan narxdan bir necha barobar yuqori bo‘lmoqda.

Mavjud tartibda suyultirilgan gaz aholi va ijtimoiy soha obyektlariga imtiyozli narxlarda yetkazib berilmoqda. Shu bilan birga, ishlab chiqarish, import, xarid va yetkazib berish xarajatlari o‘rtasidagi tafovut yildan-yilga ortib, byudjetdan ajratiladigan subsidiyalarga talab ko‘paymoqda.

Davlatimiz rahbari ayni masalada, eng avvalo, aholi manfaati ustuvor bo‘lishi zarurligini ta’kidladi. Suyultirilgan gaz odamlarga o‘z vaqtida yetib borishi, ta’minotda uzilishlarga yo‘l qo‘yilmasligi va ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar qo‘llab-quvvatlanishi lozimligi qayd etildi.

Shu maqsadda suyultirilgan gaz ta’minoti tizimini bosqichma-bosqich isloh qilish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Aholiga suyultirilgan gaz yetkazib berish tizimini qayta tashkil etish maqsadida “Hududgazta’minot” ta’sischiligida “LPG-Trade” mas’uliyati cheklangan jamiyatini tashkil etish taklif qilinmoqda. Ushbu tuzilma suyultirilgan gazni birja orqali xarid qilib, belgilangan tartibda odamlarga yetkazib berish bilan shug‘ullanadi.

Shu bois suyultirilgan gazning chakana narxini belgilashda iqtisodiy asoslangan mexanizmlarning samarali ishlashi ta’minlanadi. Bunda ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarga xarid qilingan suyultirilgan gazning har bir kilogrammi uchun kompensatsiya to‘lanishi belgilanadi.

Bu orqali narx siyosati bosqichma-bosqich tartibga solinib, ehtiyojmand oilalar uchun manzilli qo‘llab-quvvatlash mexanizmi joriy etiladi. Davlat byudjetidan ajratiladigan mablag‘lar umumiy subsidiya o‘rniga aniq iste’molchiga yo‘naltirilishi tizimning adolatliligi va samaradorligini oshiradi.

Ijtimoiy soha obyektlarining ehtiyojlari uchun suyultirilgan gazni birja narxlarida yetkazib berish, aholiga belgilangan narxda sotish natijasida yuzaga keladigan salbiy tafovutni respublika byudjeti mablag‘lari hisobidan qoplash tartibi ham ko‘zda tutilmoqda.

Xususiy sektor ishtirokini kengaytirish masalasiga alohida e’tibor qaratildi. Andijon viloyatida suyultirilgan gaz yetkazib berish jarayoniga xususiy operatorlarni jalb etish bo‘yicha pilot loyiha amalga oshirilishi rejalashtirilgan.

Mazkur jarayonda operatorlarda zarur litsenziya va ruxsatnomalar, malakali muhandis-texnik xodimlar bo‘lishi, xizmatlar kamida ikki operator tomonidan amalga oshirilishi, iste’molchilar uchun mobil ilova va onlayn xizmatlar yo‘lga qo‘yilishi belgilangan. Iste’molchilar soni va hududiy masofalardan kelib chiqib, shaharsozlik normalari hamda yong‘in xavfsizligi talablariga javob beradigan shoxobchalar tashkil etilishi ko‘zda tutilgan.

Ushbu tajribani keyinchalik boshqa hududlarda ham bosqichma-bosqich joriy etish imkoniyati ko‘rib chiqiladi.

Prezidentimiz islohotlarni puxta hisob-kitob asosida, aholi uchun qulaylik va ijtimoiy adolat tamoyillarini ta’minlagan holda amalga oshirish zarurligini ta’kidladi.

Mutasaddilarga suyultirilgan gaz yetkazib berish jadvalini qat’iy yo‘lga qo‘yish, hisob-kitoblarni raqamlashtirish, taqsimotda shaffoflikni ta’minlash, sun’iy taqchillik va asossiz narx oshishining oldini olish bo‘yicha topshiriqlar berildi.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlar uchun kompensatsiyalarni o‘z vaqtida to‘lash, gaz to‘ldirish inshootlari va tashish jarayonida xavfsizlik talablariga qat’iy rioya etish, xususiy operatorlar faoliyati ustidan samarali nazorat o‘rnatish vazifalari belgilandi.

Islohotlar natijasida suyultirilgan gaz ta’minotida shaffof va barqaror tizim shakllanishi, yetkazib berish muddatlari qisqarishi, aholi uchun xizmat sifati oshishi hamda byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish ta’minlanishi ta’kidlandi.

Shuningdek, taqdimotda Jizzax viloyatida barpo etilayotgan integratsiyalashgan atom elektr stansiyasining tashqi infratuzilmasi va unga yondosh shaharcha qurish yuzasidan 2-sentabr kuni berilgan qo‘shimcha topshiriqlar ijrosining borishi to‘g‘risida axborot berildi.

O‘zA.

O‘zbekiston va Serbiya:

MARKAZIY OSIYO VA BOLQONNI BOG‘LOVCHI STRATEGIK KO‘PRIK

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Serbiya Respublikasiga rasmiy tashrifi nafaqat ikki mamlakat, balki Markaziy Osiyo va Bolqon mintaqalari o‘rtasidagi iqtisodiy va siyosiy aloqalarni yangi bosqichga olib chiqishi kutilmoqda.

Muloqotlar kun tartibidan O‘zbekiston – Serbiya ko‘p qirrali sherikligini yanada mustahkamlash, savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikni kengaytirish kabi dolzarb masalalar o‘rin olgan. Sammit yakunida tomonlar o‘rtasida hukumatlararo va idoralararo kelishuvlarning salmoqli to‘plami imzolanishi ko‘zda tutilgan.

Ko‘p qirrali aloqalarning yangi bosqichi

Ushbu oliy darajadagi tashrif tasodifiy emas, balki tizimli olib borilayotgan faol diplomatiyaning mantiqiy davomidir, desak, mubolag‘a emas. O‘tgan yilning oktabrida Serbiya Prezidenti Aleksandr Vuchich yurtimizda bo‘ldi. Joriy yilning 18-may kuni Boku shahrida bo‘lib o‘tgan Butunjahon urbanizatsiya forumining 13-sessiyasi doirasida Prezidentlar Shavkat Mirziyoyev va Aleksandr Vuchich o‘rtasida uchrashuv bo‘lib o‘tdi. Ushbu muloqotlarda ikki davlat rahbarlari tovar ayirboshlash hajmini oshirish, mashinasozlik, qayta ishlash, kimyo, elektrotexnika, farmatsevtika, qishloq xo‘jaligi va turizm kabi sohalarda kooperatsiya dasturini ishlab chiqish bo‘yicha kelishib olishdi, shuningdek, gumanitar sohada Rektorlarning birinchi forumi hamda kino va madaniyat kunlarini o‘zaro o‘tkazish muhimligini ta’kidlashgan edi. Belgraddagi uchrashuv ushbu kelishuvlarni amaliy loyihalarga aylantirish uchun muhim maydon bo‘ladi.

3

Uchrashuv

SAMARQAND KONFERENSIYASI DUNYO E’TIBORIDA

Samarqand shahrida o‘tkazilgan Parlamentlararo Ittifoq Yosh parlament a’zolarining XII global konferensiyasi kun tartibi konstruktiv muloqotlar, samarali uchrashuvlarga boy bo‘ldi. Unda dunyoning 58 mamlakati va 11 ta xalqaro tashkilotdan kelgan mehmonlar ishtirok etdi.

Tadbir doirasida Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva xorijlik hamkasblari bilan parlamentlararo hamkorlik masalalarini muhokama qildi.

Xususan, Xitoy Kommunistik partiyasi Markaziy qo‘mitasi Xalqaro aloqalar bo‘limi mudiri Lyu Xaysin boshchiligidagi delegatsiya bilan suhbat chog‘ida O‘zbekiston – Xitoy munosabatlarini yanada mustahkamlash, parlamentlararo aloqalarni rivojlantirish, shuningdek, “Markaziy Osiyo – Xitoy” formatida o‘zaro amaliy hamkorlikni kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

Ikki mamlakat qonun chiqaruvchi organlari rahbarlari va a’zolarining o‘zaro tashriflari hamda muloqotlari dinamikasi, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va Butunxitoy xalq vakillari kengashi o‘rtasidagi hamkorlik bo‘yicha parlamentlararo komissiya faoliyati ijobiy baholandi. O‘zaro munosabatlar samaradorligini yanada oshirish maqsadida parlamentlar rahbarlarining muntazam muloqotlarini faollashtirish, parlamentlararo hamkorlik guruhlari faoliyatini mustahkamlash, tegishli qo‘mitalarning aloqalarini kengaytirish, qonunchilik sohasida tajriba almashish, birgalikda parlament va ekspert tadbirlarini o‘tkazish taklif etildi.

2

O‘zbekiston – Xitoy:

PARLAMENTLARARO MUNOSABATLARDA YANGI MAZMUN

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri Nuriddin Ismoilov Xitoy Xalq Respublikasi Kommunistik partiyasi Markaziy qo‘mitasi Xalqaro aloqalar bo‘limi mudiri Lyu Xaysin boshchiligidagi delegatsiya bilan uchrashdi.

Ta’kidlanganidek, O‘zbekiston – Xitoy munosabatlari ikki davlat rahbarlarining siyosiy irodasi va birgalikdagi sa’y-harakatlari tufayli har tomonlama strategik sheriklik darajasiga ko‘tarilgan. Barcha darajalarda aloqalar izchil mustahkamlanib, turli sohalarda hamkorlik rivojlanib bormoqda.

Spiker N. Ismoilov 1-sentabr kuni Bishkek shahrida bo‘lib o‘tgan Shanxay hamkorlik tashkiloti sammiti doirasida davlat rahbarlari o‘rtasida o‘tkazilgan muzokaralar O‘zbekiston – Xitoy ko‘p qirrali munosabatlarini yanada chuqurlashtirish, ko‘p tomonlama hamkorlikni kengaytirish va o‘zaro manfaatli tashabbuslarni amalga oshirish uchun muhim ahamiyat kasb etganini ta’kidladi. Sammit doirasidagi muloqotlar va ilgari surilgan tashabbuslar O‘zbekistonning xalqaro maydondagi nufuzi, ochiq va konstruktiv tashqi siyosati hamda mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishdagi faol pozitsiyasini yana bir bor namoyon qilgani e’tirof etildi.

2

SAMARQAND KONFERENSIYASI DUNYO E’TIBORIDA

1 Uchrashuvda siyosiy partiyalar o‘rtasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish yuzasidan ham fikr almashildi. “Markaziy Osiyo – Xitoy” formati mintaqaviy tinchlik, barqarorlik va izchil taraqqiyotni mustahkamlash uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratayotgani ta’kidlandi.

Shuningdek, Senat Raisi “Satyarthi Movement for Global Compassion” harakati bosh direktori Asmita Satyarthi xonim bilan ham uchrashdi.

Muloqot davomida O‘zbekiston va Hindiston o‘rtasidagi gumanitar hamkorlikni yanada kengaytirish, bolalar huquqlarini himoya qilish, ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha tajriba almashish, qo‘shma seminarlar, ekspertlar uchrashuvlari va parlament muhokamalarini tashkil etish imkoniyatlariga e’tibor qaratildi. Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini yanada oshirish, yosh ayol yetakchilarni qo‘llab-quvvatlash hamda ijtimoiy liderlikni rivojlantirish yuzasidan ham fikr almashildi.

Bundan tashqari, Tanzila Norboyeva Parlamentlararo Ittifoqning 2020 – 2023-yillarda prezidenti bo‘lib faoliyat ko‘rsatgan Duarte Pacheko hamda Hindiston Respublikasi parlamenti yuqori palatasi a’zosi Raghav Chadda bilan ham suhbat o‘tkazdi.

Uchrashuv chog‘ida O‘zbekistonning Parlamentlararo Ittifoq bilan hamkorligini rivojlantirish, parlament diplomatiyasi imkoniyatlaridan samarali foydalanish, shuningdek, O‘zbekiston – Portugaliya va O‘zbekiston – Hindiston parlamentlararo hamkorlik munosabatlarini mustahkamlash masalalari muhokama qilindi.

Xususan, Duarte Pacheko O‘zbekistonning Parlamentlararo Ittifoq bilan munosabatlari izchil rivojlanayotganini hamda ilgari surilayotgan tashabbuslarini yuqori baholadi.

Raghav Chadda esa O‘zbekiston – Hindiston parlamentlararo munosabatlarini yangi mazmun bilan boyitish, delegatsiyalar almashinuvini kengaytirish, yosh parlament a’zolari o‘rtasidagi muloqotni rivojlantirish, shuningdek, raqamli transformatsiya, innovatsiyalar, ta’lim, sog‘liqni saqlash va barqaror rivojlanishborasida tajriba almashish muhimligini ta’kidladi.

Tadbir

BRMGA ERISHISHDA TASHABBUSKORLIK NAMUNASI

So‘nggi yillarda yurtimizda Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM)ni amalga oshirish borasida ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik va institutsional yo‘nalishlarda salmoqli natijalarga erishilmoqda. Xususan, 2021 – 2025-yillarda kambag‘allik darajasi 17 foizdan 5,8 foizgacha, ishsizlik esa 2020 – 2025-yillarda 10,5 foizdan 5,1 foizgacha tushdi. Yoshlarni oliy ta’lim bilan qamrab olish 18,7 foizdan 47,7 foizga yetdi.

Ushbu ko‘rsatkichlar BRMni amalga oshirishda davlat siyosatining barcha yo‘nalishlarini qamrab olgan tizimli yondashuv shakllanayotganini ko‘rsatadi. Bunda qonunchilik bazasini takomillashtirish, davlat dasturlari ijrosi ustidan parlament nazoratini amalga oshirish, byudjet ustuvorliklarini belgilash hamda fuqarolar, ayniqsa, yoshlarni qarorlar qabul qilish jarayoniga kengroq jalb etishda muhim o‘rin tutadi.

Ayni masalalar 4 – 6-sentabr kunlari Samarqand shahrida bo‘lib o‘tgan Parlamentlararo Ittifoq Yosh parlament a’zolarining XII global konferensiyasi kun tartibidan ham o‘rin oldi va “Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda parlamentlarning ishtiroki” mavzuida maxsus ochiq sessiya bo‘lib o‘tdi.

Tadbirni Oliy Majlis Senati Raisi, O‘zbekiston Respublikasining barqaror rivojlantirish sohasidagi milliy maqsadlar va vazifalarning 2030-yilgacha bo‘lgan davrda amalga oshirilishini nazorat qilish bo‘yicha Parlament komissiyasi hamraisi Tanzila Norboyeva ochib berdi.

Unda turli mamlakatlar parlamentlarining yosh a’zolari, xalqaro tashkilotlar hamda soha ekspertlari Barqaror rivojlanish maqsadlarini milliy darajada amalga oshirishda qonun chiqaruvchi hokimiyatning o‘rni va imkoniyatlarini muhokama qildi.

Sessiyada O‘zbekiston tashabbusi bilan qabul qilingan BMT Bosh Assambleyasining “Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishni jadallashtirishda parlamentlar rolini kuchaytirish to‘g‘risida”gi hamda “Ijtimoiy rivojlanishni jadallashtirishda parlamentlarning rolini kuchaytirish to‘g‘risida”gi rezolyutsiyalari ahamiyatiga alohida e’tibor qaratildi. Xususan, yosh parlament a’zolarining BRMni ilgari surishdagi roli, parlamentlarning yoshlar bilan ishlash mexanizmlari, navqiron avlodning siyosiy va ijtimoiy jarayonlardagi ishtirokini kengaytirish, shuningdek, BRMga erishishni jadallashtirish bo‘yicha parlamentlararo hamkorlik masalalari ko‘rib chiqildi.

Tadbir yakunida yosh parlament a’zolarining BRMni amalga oshirishdagi tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, ilg‘or tajribalarni almashish va samarali parlament mexanizmlarini qo‘llash bo‘yicha takliflar bildirildi.

O‘zbekiston – Xitoy:

PARLAMENTLARARO MUNOSABATLARDA YANGI MAZMUN

1 Shuningdek, mehmonlarga O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, xususan, parlament faoliyatini takomillashtirish, qonun ijodkorligi sifatini oshirish va fuqarolar manfaatlarini qonunchilikda yanada mustahkamlash borasidagi ishlar haqida batafsil ma’lumot berildi. Qolaversa, O‘zbekiston va Xitoy parlamentlari o‘rtasidagi hamkorlikni yangi mazmun bilan boyitish, qonun ijodkorligi sohasida tajriba almashish, parlamentlararo do‘stlik guruhlari ishini faollashtirish hamda xalqaro va mintaqaviy masalalar yuzasidan muloqotlarni davom ettirish muhimligi aytildi.

O‘z navbatida, Xitoy Xalq Respublikasi Kommunistik partiyasi Markaziy qo‘mitasi Xalqaro aloqalar bo‘limi mudiri Lyu Xaysin O‘zbekiston – Xitoy munosabatlarining bugungi yuksak darajasini e’tirof etib, ikki davlat rahbarlarining strategik qarorlari va siyosiy irodasi hamkorlikni rivojlantirish uchun mustahkam zamin yaratayotganini ta’kidladi.

Xitoy tomoni O‘zbekiston Prezidentining xalqaro maydondagi obro‘si va mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi nufuzi tobora oshib borayotganini yuqori baholadi. Shuningdek, mehmon birinchi marta Xitoydan tashqari bo‘lgan mamlakatda “Markaziy Osiyo – Xitoy” siyosiy partiyalari muloqoti doirasidagi xalqaro konferensiyaga O‘zbekiston mezbonlik qilganini va bu nufuzli tadbir muvaffaqiyatli o‘tganini e’tirof etdi. O‘zbekiston parlamentining faoliyati, parlamentlararo aloqalarni rivojlantirish borasidagi tashabbuslari va ikki tomonlama tadbirlarni tashkil etishdagi sa’y-harakatlarini ham yuqori baholadi.

Muloqotda parlamentlararo hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish, oliy darajada erishilgan kelishuvlarning amaliy ijrosini ta’minlashda parlamentlarning mas’uliyatini kuchaytirish masalalari muhokama qilindi. Xususan, davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish, kambag‘allikka qarshi kurashish, qishloq hududlarini rivojlantirish, korrupsiyaga qarshi kurash, ekologiya, “yashil” va “raqamli” taraqqiyot sohalaridagi qonunchilikni takomillashtirishda parlamentlararo do‘stlik guruhlari faoliyatini kuchaytirish, deputatlar va siyosiy partiyalar o‘rtasidagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqalarni kengaytirish hamda qo‘shma dastur va treninglar orqali tajriba almashish ustuvor vazifalar sifatida belgilandi.

Uchrashuv yakunida O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasidagi parlamentlararo hamkorlikni yanada kengaytirish, o‘zaro tajriba almashish va mavjud aloqalarni yangi amaliy mazmun bilan boyitishga kelishib olindi.

“Xalq so‘zi”.

Xalqaro anjuman

YOSHLARGA IMKONIYAT — KELAJAK UCHUNMUHIM SARMOYA

Samarqand shahrida bo‘lib o‘tgan Parlamentlararo Ittifoq Yosh parlament a’zolarining XII global konferensiyasida dunyoning 60 ga yaqin mamlakatlaridan tashrif buyurgan 250 dan ziyod ishtirokchilar ikki kun davomida nizolar va raqamli transformatsiya sharoitida yoshlarning siyosiy hamda iqtisodiy huquqlarini ta’minlash, bandligini oshirish, shuningdek, xotin-qizlar va yoshlarga nisbatan zo‘ravonlikning oldini olish masalalarini muhokama qildi.



Shu kunga qadar Jeneva, Tokio, Lusaka, Ottava, Boku, Asunsyon, Xanoy, Yerevan va Lima kabi shaharlarda o‘tkazilgan har bir konferensiyada zamonaviy dunyoning dolzarb masalalariga yosh parlament a’zolarining munosabati muhokama qilingan hamda yoshlarning siyosiy jarayonlardagi ishtirokini kengaytirish, salohiyatini oshirish va parlamentlararo hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan takliflar ilgari surilgan edi.

Bu galgi Yosh parlament a’zolarining XII global konferensiyasi O‘zbekiston Prezidentining 2025-yil aprel oyida Toshkent shahrida bo‘lib o‘tgan Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley assambleyasida ilgari surgan tashabbusi asosida o‘tkazilgani bilan ham alohida ahamiyatga ega. Chunki u yoshlarning parlament faoliyatidagi rolini kuchaytirish, yosh avlod vakillari o‘rtasida global muloqot va hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan muhim tashabbuslarning amaliy ifodasi hisoblanadi.

Bugungi kunda dunyo tobora murakkab va ziddiyatli geosiyosiy jarayonlarni boshdan kechirayotgan bir sharoitda yoshlarni turli xavf-xatarlardan muhofaza qilish, inson qadr-qimmati hamda ijtimoiy adolat tamoyillarini mustahkamlash masalalari xalqaro hamjamiyatning kun tartibiga chiqmoqda. Shu jihatdan mazkur konferensiya yosh avlod ovozini xalqaro parlament muloqotiga olib kirish, ularning global muammolar yechimiga qaratilgan tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash va yosh parlament a’zolari o‘rtasida tajriba almashinuvini kuchaytirishga xizmat qilishi bilan ham ahamiyatlidir.

Ikki kun mobaynida ishtirokchilar bir qancha davra suhbatlari va sessiyalar o‘tkazdi.

Xususan, “Murakkab davrda yoshlar huquqlarini himoya qilish” mavzuidagi ilk muhokamada qurolli nizolar va turli inqirozli vaziyatlarning yoshlar hayotiga ta’siri, ularni muhofaza etish, ta’lim olish imkoniyatlarini ta’minlash va tinch, xavfsiz hayot kechirishi uchun zarur sharoitlar yaratish masalalari ko‘rib chiqildi. Bunday sharoitda yoshlar huquqlarining samarali himoyasi bo‘yicha xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, zarur ijtimoiy va gumanitar yordam ko‘rsatish, ta’lim hamda rivojlanish imkoniyatlarini saqlab qolish masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

Bugun hayotimizning har bir jabhasini raqamlarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. “Raqamli davrda raqamli huquqlarni himoya qilish” mavzuidagi muhokamada bu jarayon insonlarning axborot olish, muloqotga kirishish, ta’lim va o‘z salohiyatini namoyon etish borasidagi imkoniyatlarini kengaytirish bilan birga ushbu muhitda shaxsga doir ma’lumotlarning daxlsizligi, so‘z erkinligi, onlayn xavfsizlik va inson huquqlarini ta’minlash bilan bog‘liq yangi masalalarni ham kun tartibiga chiqarayotgani aytildi.

Ekologik inqirozning yoshlar hayotiga ta’siri va bunday sharoitda ularning muhofazasi bugunning dolzarb vazifalaridan. Konferensiya kun tartibidan o‘rin olgan “Hozirgi va kelajak avlodlar uchun iqlim o‘zgarishiga chidamlilikni ta’minlash” mavzuidagi davra suhbatida yoshlarning xavfsiz, sog‘lom va barqaror atrof-muhitda yashash huquqini ta’minlash masalalari ko‘rib chiqildi.

Yoshlar bandligi va ularning mehnat huquqlarini ta’minlash ham dunyo mamlakatlari oldidagi muhim vazifalardan. Iqtisodiy o‘zgarishlar hamda mehnat bozoridagi yangi talablar munosib ish o‘rinlari yaratish, adolatli mehnat sharoitlarini ta’minlash va ijtimoiy himoyani kuchaytirishni talab etmoqda.

Navbatdagi sessiyada yoshlarning munosib mehnat qilish huquqini ta’minlash, adolatli ish haqi va ijtimoiy himoyadan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish masalalari kun tartibida bo‘ldi. Unda xotin-qizlar hamda yoshlarning siyosiy huquqlarini ta’minlash, jamiyat va siyosiy hayotdagi ishtirokini kengaytirish, shuningdek, ularga nisbatan zo‘ravonlikning oldini olish masalalari atroflicha ko‘rib chiqildi.

Ta’kidlanganidek, bunday ochiq muloqot maydonlari yosh parlament a’zolariga o‘z mamlakatlari va parlamentlaridagi tajribalarni o‘zaro muhokama qilish, yangi g‘oya hamda tashabbuslarni ilgari surish, shuningdek, umumiy yechimlarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Ishtirokchilar bildirgan taklif va mulohazalar parlamentlararo hamkorlikni rivojlantirish, yosh parlament a’zolarining faolligini oshirish hamda gender tenglik va xotin-qizlarni zo‘ravonlikdan himoya qilish borasidagi sa’y-harakatlarni kuchaytirish nuqtayi nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi.

Samarqandning qadimiy va betakror muhitida o‘tgan ushbu xalqaro anjuman yosh parlamentariylar o‘rtasidagi aloqalarni yanada rivojlantirish, yoshlarning global kun tartibidagi o‘rnini mustahkamlash, parlamentlararo muloqotni kuchaytirish va parlament diplomatiyasini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qilishi bilan muhim ahamiyatga ega.

So‘z – anjuman ishtirokchilariga

Aleksandr SHPAKOVSKIY,
Belarus parlamenti a’zosi:



– Biz O‘zbekiston Respublikasi rahbariyati va parlamentiga, eng avvalo, Prezident Shavkat Mirziyoyevga yosh parlamentariylarning ana shunday muhim forumini o‘tkazish tashabbusi uchun chuqur minnatdorlik bildiramiz.

Bu yerda yoshlarning siyosiy va iqtisodiy huquqlaridan tortib, raqamli texnologiyalar hamda sun’iy intellekt jadal rivojlanayotgan muhit kabi keng ko‘lamli mavzular muhokama qilindi. Bular alohida e’tibor qaratishimiz zarur bo‘lgan masalalar. Deyarli barcha ma’ruzachilar bugun murakkab bir davrda yashayotganimizni ta’kidlashdi. Mavjud muammolar yoshlar uchun turli xavf va tahdidlarga aylanmoqda. Shu sababli biz ularga birgalikda samarali yechimlar ishlab chiqishimiz zarur.

Bunda O‘zbekiston va Belarus davlatlari siyosati mushtarak: tinchlikni ta’minlash, bahsli vaziyatlarni murosa hamda o‘zaro kelishuv asosida hal qilish. Shu ma’noda, chuqur tarixiy ildizlarga ega qadimiy Samarqand hamda 35-yillik suveren taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgan O‘zbekiston murakkab masalalarga yechim topish, jamiyatda ham, qo‘shni davlatlar bilan munosabatlarda ham murosaga erishish mumkinligini namoyon etmoqda. Ishonamanki, ushbu forum zarur va samarali yechimlarni birgalikda ishlab chiqishimizga xizmat qiladi.

Asmita SATYARTHI,
“Satyarthi Movement for Global Compassion” harakati bosh direktori:



– Avvalo, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga, shuningdek, biz bilan birga faoliyat olib borgan barcha senatorlarga samimiy qabul, tadbirning yuqori saviyada tashkil etilgani uchun chuqur minnatdorlik bildiramiz.

Shuningdek, O‘zbekistonning global miqyosdagi yetakchilikka, ayniqsa, yosh parlament a’zolarini qo‘llab-quvvatlashga qaratayotgan e’tibori va sa’y-harakatlarini yuksak qadrlaymiz. Demokratik qadriyatlarni, inson huquqlari, erkinlik, adolat va har bir insonning qadr-qimmatini himoya qilish tamoyillarini mustahkamlash nihoyatda muhim.

Bu borada O‘zbekistonning tutayotgan o‘rni va qo‘shayotgan hissasi uchun alohida minnatdorlik bildirmoqchiman. Turli mamlakatlardan kelgan parlament a’zolari bilan muloqotda bo‘lish, ularning ilg‘or tajribalarini o‘rganish, bilim va tajriba almashish hamda kelgusida birgalikda hamkorlik qilish uchun bu juda yaxshi imkoniyatdir.

Nataliya KUVSHINOVA,
Rossiya Federatsiyasi Federal Majlisi Federatsiya Kengashi a’zosi:



– Yosh parlament a’zolarining XII global konferensiyasida ishtirok etganimdan mamnunman. Prezident Shavkat Mirziyoyev konferensiya ishtirokchilariga yo‘llagan tabrigida O‘zbekistonda yoshlar siyosati va yosh avlodni qo‘llab-quvvatlashga qaratilayotgan alohida e’tibor haqida to‘xtalib o‘tgan. Bu davlat rahbarining yosh avlodga g‘amxo‘rlik qilish, ularning bilim va salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish hamda Yoshlar parlamentini rivojlantirishga katta ahamiyat qaratayotganidan dalolat.

Rossiya va O‘zbekiston yoshlari xalqaro forumlar, turli loyihalar hamda parlamentlararo hamkorlik doirasida faol aloqalarni yo‘lga qo‘ygan va bu izchil rivojlanib bormoqda. Samarqanddagi anjuman kun tartibidan gender tenglik, yoshlarning qarorlar ishlab chiqishdagi ishtiroki, ularning huquqlari himoyasi, iqtisodiyot va kadrlar masalalari o‘rin oldi. Ayniqsa, raqamlashtirishga alohida e’tibor qaratildi. Bu bugun nafaqat texnologik, balki milliy xavfsizlik va ijtimoiy farovonlik bilan bog‘liq masalaga aylangan. Ishonchim komilki, konferensiyada ilgari surilgan takliflar mamlakatlarimiz yoshlari manfaatlariga xizmat qiladi.

Oral ATANIYOZOVA,
Oliy Majlis Senati a’zosi:



– Samarqandda bo‘lib o‘tgan forum yoshlarning davlat va jamiyat hayotidagi o‘rniga yangicha nazar bilan qarashga undaydigan muhim siyosiy muloqot maydoni bo‘ldi.

Bugun mamlakatimizda 39 millionlik aholining qariyb 56 foizini yoshlar tashkil etadi. Ularning tadbirkorlar safidagi ulushi 35 foizga yetgan. 2024-yilgi saylovlarda esa 200 ga yaqin yoshlar vakillik organlari a’zoligiga saylandi. Oliy Majlis palatalari huzuridagi Yoshlar parlamentlari ham yigit-qizlarning siyosiy va huquqiy tajriba orttirishi uchun o‘ziga xos maktab vazifasini o‘tamoqda. Bu raqamlar yoshlarga oid siyosat amaliy natijalar bilan mustahkamlanayotganini ko‘rsatadi.

Shu nuqtayi nazardan, Samarqand konferensiyasida navqiron avlodning siyosiy ishtirokini kengaytirish, munosib mehnat va iqtisodiy imkoniyatlar yaratish, gender tenglikni ta’minlash, raqamli makonda inson huquqlari himoyasi kabi masalalarning muhokama qilingani alohida ahamiyatga ega.

Azizbek OCHILBOYEV,
Oliy Majlis Senati huzuridagi Yoshlar parlamenti raisi o‘rinbosari:



– Konferensiyaning eng muhim jihatlaridan biri – yoshlarga oid masalalar bevosita ular ishtirokida muhokama qilingani. Uzoq vaqt davomida xalqaro va milliy siyosatda yoshlar ko‘proq davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi lozim bo‘lgan ijtimoiy qatlam sifatida ko‘rib kelindi. Bugungi voqelik esa boshqa yondashuvni talab etmoqda: yoshlar faqat siyosatning obyekti emas, balki uning faol subyekti bo‘lishi kerak. Samarqand konferensiyasi aynan mana shu tamoyilning amaliy ifodasiga aylandi.

Undan chiqadigan eng muhim xulosa, nazarimda juda oddiy: yoshlar haqida qaror qabul qilish davridan yoshlar bilan birga qaror qabul qilish davriga o‘tishimiz kerak. Chunki ular bugundan ham, ertadan ham teng manfaatdordir.

Hamroqul QARSHIYEV
(«Xalq so‘zi»).

O‘ZARO TAJRIBA ALMASHISH PLATFORMASI

Samarqandda o‘tkazilgan xalqaro anjuman mamlakatimiz va xorijdan kelgan parlament a’zolari uchun keng muloqot hamda o‘zaro tajriba almashish platformasi vazifasini o‘tadi.

Muloqot

Xususan, Oliy Majlis Senatining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasi raisi, “O‘zbekiston – Eron” hamkorlik bo‘yicha parlamentlararo guruh hamraisi Qutbiddin Burhonov Eron islomiy kengash majlisi deputati Amir Monfarid boshchiligidagi delegatsiya bilan uchrashdi.

Muloqotda ikki mamlakat parlamentlari o‘rtasidagi aloqalarni yanada mustahkamlash, hamkorlik guruhlari faoliyatini rivojlantirish hamda qo‘shma tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash masalalari muhokama qilindi.

So‘nggi yillarda davlat rahbarlarining siyosiy irodasi va sa’y-harakatlari natijasida O‘zbekiston va Eron o‘rtasidagi ko‘p qirrali hamkorlik yangi bosqichga ko‘tarilgani ta’kidlandi.

Shuningdek, Oliy Majlis Senatining Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qo‘mitasi raisi Orzigul Qozixonova Belarus Respublikasi Milliy Majlisi Respublika Kengashining Xalqaro ishlar va milliy xavfsizlik bo‘yicha doimiy komissiyasi a’zosi Aleksandr Lukyanov bilan muloqot qildi.

Suhbat chog‘ida Samarqand shahrida o‘tkazilgan Parlamentlararo Ittifoq Yosh parlament a’zolarining XII global konferensiyasi yuqori saviyada tashkil etilgani hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Belarus Respublikasiga tashrifi davomida erishilgan muhim kelishuvlarni samarali amalga oshirishda bunday hamkorlikning o‘rni muhim ekanligi ta’kidlandi.

Uchrashuvda joriy yil sentabr oyida Belarus Respublikasi Milliy Majlisi Respublika Kengashi Raisi Natalya Kochanova boshchiligidagi delegatsiyaning O‘zbekistonga tashrifi doirasida Xiva shahrida yoshlar parlamentlari vakillari ishtirokida uchrashuv tashkil etish masalasi ham ko‘rib chiqildi.

Bundan tashqari, anjuman doirasida Oliy Majlis Senati a’zolari Buyuk Britaniya parlamenti Jamoatchilik palatasi Xalqaro taraqqiyot qo‘mitasi a’zosi A. Kyorns, Tashqi ishlar qo‘mitasi a’zosi D. Karden, Irlandiya parlamentining Tadbirkorlik, turizm va bandlik masalalari bo‘yicha qo‘mitasi raisi Jeyms O‘Konnor, Rossiya Federal Majlisi Federatsiya Kengashi Iqtisodiy siyosat qo‘mitasi raisi o‘rinbosari A. Trembiskiy boshchiligidagi parlament delegatsiyalari bilan ham uchrashuvlar o‘tkazdi.

Xususan, Buyuk Britaniya parlament a’zolari bilan bo‘lib o‘tgan uchrashuvda ko‘p qirrali munosabatlarni yanada rivojlantirish hamda parlamentlararo hamkorlikni mustahkamlash masalalari ko‘rib chiqilgan bo‘lsa, irlandiyalik hamkasblar bilan o‘tkazilgan muloqotda IT, qishloq xo‘jaligi, ta’lim, yangi texnologiyalarni jalb qilish va Yevropa Ittifoqi bilan sheriklik doirasida qo‘shma loyihalarni amalga oshirish masalalari muhokama qilindi.

Rossiya Federal Majlisi Federatsiya Kengashi a’zolari bilan esa parlamentlararo munosabatlarni yanada faollashtirish masalalari ko‘rib chiqildi. Muloqot davomida O‘zbekiston va Rossiya o‘rtasidagi hamkorlik keng qamrovli strategik sheriklik darajasida rivojlanib borayotganligi alohida ta’kidlandi.

“Xalq so‘zi”.

Mamlakatimizda 2026-yil 1-noyabrdan ommaviy tadbirlarda jamoat tartibini buzgan shaxslarga nisbatan kelgusi ommaviy tadbirlarga kirishiga vaqtincha cheklov qo‘yiladi.

UMUMIY MANFAATLARGA TAYANGAN HAMKORLIK

Samarqandda “Markaziy Osiyo mamlakatlari – Xitoy o‘rtasidagi aloqalarning mustahkamlanishida siyosiy partiyalarning o‘rni” mavzuida konferensiya bo‘lib o‘tdi.

“Markaziy Osiyo – Xitoy” siyosiy partiyalari muloqoti doirasida ilk bor Xitoy Xalq Respublikasidan tashqarida – mamlakatimizda o‘tkazilgan anjumanda O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Turkmanistonning yetakchi siyosiy partiyalari rahbarlari va vakillari, Xitoy Kommunistik partiyasi delegatsiyasi, parlament a’zolari, diplomatlar hamda ekspert-tahliliy doiralar vakillari ishtirok etdi.

Konferensiya



Konferensiyada O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Spikeri o‘rinbosari Rahimjon Hakimov, Xitoy Xalq Respublikasi Kommunistik partiyasi Markaziy qo‘mitasi Xalqaro aloqalar bo‘limi mudiri Lyu Xaysin, O‘zLiDeP fraksiyasi rahbari Aktam Haitov hamda Qozog‘iston, Qirg‘iz Respublikasi, Tojikiston va Turkmaniston parlamentlari hamda siyosiy partiyalari vakillari so‘zga chiqib, so‘nggi yillarda “Markaziy Osiyo – Xitoy” formati strategik ishonch va ko‘p tomonlama hamkorlikning muhim platformasiga aylanib borayotganini ta’kidladilar.

Jumladan, 2023-yil may oyida Sian shahrida bo‘lib o‘tgan birinchi sammit ushbu hamkorlikka mustahkam poydevor yaratdi. Sian deklaratsiyasi asosida ustuvor yo‘nalishlar belgilanib, Kotibiyat tashkil etildi, vazirlar va ekspertlar uchrashuvlari, shuningdek, shartnomaviy-huquqiy mexanizmlar shakllantirildi.

2025-yil iyun oyida Ostonada o‘tkazilgan ikkinchi sammit esa hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqdi. Ostona deklaratsiyasi hamda Xitoy va Markaziy Osiyoning besh davlati o‘rtasida Abadiy yaxshi qo‘shnichilik, do‘stlik va hamkorlik to‘g‘risidagi shartnomaning qabul qilinishi o‘zaro hurmat, ishonch, tenglik va manfaatdorlik tamoyillariga asoslangan uzoq muddatli strategik sheriklikning huquqiy asoslarini yanada mustahkamladi.

Samarqand konferensiyasi esa mazkur jarayonning mantiqiy davomi bo‘lib, davlatlararo munosabatlarni partiyalararo va parlamentlararo diplomatiya bilan to‘ldirishga xizmat qilmoqda.

Konferensiyada dunyoda geosiyosiy qarama-qarshiliklar, iqtisodiy beqarorlik kuchayayotgan davrda mintaqada o‘zaro bog‘liqlikni kuchaytirish barqarorlikning muhim omiliga aylanayotganligi ta’kidlandi. Shu nuqtayi nazardan, “Xitoy – Markaziy Osiyo” hamkorligining siyosiy, iqtisodiy, transport, texnologik va gumanitar yo‘nalishlarda o‘zaro uyg‘un rivojlanishi mintaqada yangi imkoniyatlar makonini shakllantirishga yo‘l ochadi.

Ishtirokchilarning fikricha, zamonaviy sharoitda partiyalararo diplomatiya mamlakatlar o‘rtasida o‘zaro ishonchni mustahkamlash, jamiyatlar o‘rtasidagi muloqotni kengaytirish va ilg‘or tajribani o‘rganishning muhim vositasi hisoblanadi. Siyosiy partiyalar turli ijtimoiy qatlamlar manfaatlarini ifoda etgan holda, islohotlarning ijtimoiy ahamiyatini tushuntirish va qo‘llab-quvvatlashda muhim o‘rin tutadi.

Parlamentlararo hamkorlik esa erishilgan davlatlararo kelishuvlarning barqaror huquqiy asosini ta’minlashga xizmat qilishi qayd etildi. Shu bois qonun ijodkorligi, davlat va mahalliy boshqaruv, kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish, kambag‘allikni qisqartirish, raqamlashtirish, korrupsiyaga qarshi kurashish, yoshlar va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash sohalarida qonunchilik tajribasini muntazam almashish muhimligi ta’kidlandi.

Tadbirda O‘zbekistonda Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, yangi tahrirdagi Konstitutsiya, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, ochiq va pragmatik tashqi siyosatning natijalari ishtirokchilar tomonidan alohida e’tirof etildi. So‘nggi o‘n yilda O‘zbekistonda amalga oshirilgan keng ko‘lamli demokratik islohotlar, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-gumanitar sohalardagi yuksalish jarayonlari yuqori baholandi.

Shuningdek, xorijiy partiyalar va parlament vakillari O‘zbekiston rahbarining ochiq, pragmatik va tashabbuskor tashqi siyosati mamlakatning xalqaro maydondagi nufuzining ortishiga, xorijiy davlatlar bilan aloqalar kengayishiga olib kelganini ta’kidlashdi.

Bu borada “Markaziy Osiyo – Xitoy” mexanizmi tobora mustahkamlanib borilayotganiga alohida e’tibor qaratildi. Yaxshi qo‘shnichilik va sheriklik makoniga aylangan Markaziy Osiyodagi chuqur transformatsiya jarayonlari hamda Xitoyning qo‘shni davlatlar bilan do‘stona munosabatlarni rivojlantirish va “Bir makon, bir yo‘l” global konsepsiyasini ilgari surishga qat’iy sodiqligi ushbu formatdagi hamkorlikning rivojlanishiga imkon bermoqda.

Konferensiya qatnashchilari mazkur formatning mintaqa davlatlariga berayotgan amaliy natijalariga, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning lokomotivi sifatida maydonga chiqayotganiga, xususan, mintaqa mamlakatlarining Xitoy bilan tovar ayirboshlash hajmi shiddat bilan o‘sib, 100 mlrd. dollarlik marraga yaqinlashganiga, O‘zbekiston bilan esa ikki tomonlama savdoni yaqin yillarda 30 mlrd. dollarga yetkazish maqsadi qo‘yilganiga alohida e’tibor qaratdi.

Ushbu hamkorlik Markaziy Osiyoning resurs, inson kapitali va bozor salohiyatini Xitoyning texnologiya, investitsiya va sanoat kooperatsiyasi imkoniyatlari bilan uyg‘unlashtirish, transport sohasidagi o‘zaro bog‘liqlikni rivojlantirish, energetika tizimlarini mustahkamlash, shuningdek, “yashil” iqtisodiyot, sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar bo‘yicha aloqalarni kengaytirish imkonini beradi.

Tadbirda Xitoy va Markaziy Osiyo mamlakatlari siyosiy partiyalari muloqotini muntazam davom ettirish, parlamentlar va ularning qo‘mitalari o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqalarni kengaytirish, qonun ijodkorligi bo‘yicha tajriba almashish hamda amaliy tashabbuslarni ilgari surish muhimligi qayd etildi.

Yakunda siyosiy partiyalar va parlamentlar o‘rtasidagi muloqotni yangi bosqichga olib chiqish, mavjud kelishuvlarning ijtimoiy ahamiyatini kuchaytirish va mintaqaning tinchligi, barqarorligi hamda farovonligiga xizmat qiladigan amaliy tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha umumiy yondashuvlar ilgari surildi.

So‘z – anjuman ishtirokchilariga

Aydos SARIM,
Qozog‘iston Respublikasi Qurultoyi deputati:



– Markaziy Osiyo mintaqasi iqtisodiy, investitsiyaviy, savdo, transport-logistika sohalarini rivojlantirishdan umumiy manfaatdor va bugun bu yo‘nalishda davlatlarimiz o‘rtasidagi aloqalar yangi bosqichda taraqqiy etmoqda. Bu borada Xitoy mintaqaning eng yaqin hamkori hisoblanadi. Parlamentlararo, partiyalararo muloqot esa davlat rahbarlari erishgan kelishuvlarni samarali amalga oshirish, qonunlar qabul qilishda hamkorlikning turli yo‘nalishlarini hisobga olish va muvofiqlashtirishda muhim ahamiyatga ega.

Biz O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarni katta qiziqish va xayrixohlik bilan kuzatamiz, yutuqlaringizdan xursand bo‘lamiz. Menimcha, haqiqiy do‘stlik aynan shunday munosabatlarda namoyon bo‘ladi. To‘g‘ri, ayni paytda dunyodagi geosiyosiy vaziyat qanchalik murakkab ekanini ham ko‘rib turibmiz. Shunday sharoitda teng huquqli muloqot va o‘zaro hurmatga asoslangan mintaqaviy hamkorlik mexanizmlarining ahamiyati yanada oshadi. Shuning uchun mamlakatlarimiz va xalqlarimiz o‘rtasidagi bugungi yaqin munosabatlarni kelgusida yanada chuqurlashtirish ayni muddaodir.

Gulsharkan KULTAYEVA,
Qirg‘iz Respublikasi Jogorku Keneshi a’zosi:

– Avvalo, O‘zbekiston tomoniga samimiy mehmondo‘stlik uchun minnatdorlik bildiraman. Bizni O‘zbekiston bilan mushtarak tariximiz, yaqin qo‘shnichilik va strategik hamkorlik munosabatlari bog‘lab turadi. “Markaziy Osiyo – Xitoy” muloqoti doirasidagi sheriklikda ikki davlatning siyosiy, diplomatik va iqtisodiy aloqalari muhim ahamiyat kasb etadi.



Bugungi kunda Qirg‘iziston uchun eng muhim strategik loyihalardan biri, bu, albatta, Xitoy – Qirg‘iziston – O‘zbekiston temir yo‘lidir. Ushbu loyihaning amalga oshirilishi nafaqat Markaziy Osiyo, balki Xitoy, Fors ko‘rfazi mamlakatlari va Yevropa o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytirish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Bu yo‘l mintaqamizning transport-tranzit salohiyatini oshirib, mamlakatlarimiz o‘rtasidagi hamjihatlikni yanada mustahkamlaydi. Men ushbu loyihani tinchlik, barqarorlik va o‘zaro manfaatli hamkorlikka xizmat qiladigan strategik tashabbus sifatida baholayman.

Maliksho NE’MATZODA,
Tojikiston Xalq demokratik partiyasi raisining birinchi o‘rinbosari:



– Samarqandda o‘tkazilgan Markaziy Osiyo va Xitoy siyosiy partiyalari muloqoti mintaqamiz uchun muhim ahamiyatga ega. Davlatlarimiz o‘rtasida siyosiy, iqtisodiy, madaniy va boshqa sohalardagi hamkorlik izchil rivojlanib borayotgan bir paytda siyosiy partiyalar o‘rtasidagi aloqalarni ham yangi bosqichga olib chiqish zarur.

Tashrif doirasida Tojikiston Xalq demokratik partiyasi va O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi o‘rtasida hamkorlik memorandumi imzolangani bu borada muhim qadam bo‘ldi. Ushbu hujjat o‘zaro tajriba almashish, partiyalararo muloqotni kengaytirish va xalqlarimiz o‘rtasidagi do‘stlik rishtalarini yanada mustahkamlashga yangi sur’at bag‘ishlaydi.

Siyosiy partiyalar jamiyat va xalq bilan bevosita ishlaydigan katta kuchdir. Shu bois ular davlat rahbarlari tomonidan ilgari surilayotgan ezgu tashabbus va dasturlarning mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikka yetkazish, ularni amalga oshirishga ko‘maklashishda muhim o‘rin tutadi.

Samarqanddagi ushbu muloqot Markaziy Osiyo davlatlari va Xitoy o‘rtasidagi o‘zaro ishonch, do‘stlik va manfaatli hamkorlikni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Kelgusida bunday uchrashuvlarni mintaqamizning boshqa davlatlarida ham davom ettirish maqsadga muvofiq.

Shuhrat SHARAFUTDINOV,
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputati:



– “Markaziy Osiyo – Xitoy” partiyalararo muloqoti doirasidagi konferensiya nafaqat siyosiy, balki iqtisodiy va ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirish uchun ham muhim maydondir. Mazkur muloqot O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasidagi yuksak darajadagi ishonchli munosabatlarning yana bir ifodasi bo‘ldi.

Davlat rahbarlari tomonidan erishilgan kelishuvlar va imzolangan bitimlarni hayotga tatbiq etish parlamentlar zimmasiga muhim mas’uliyat yuklaydi. Biz, deputatlar ushbu bitimlardagi vazifalarning samarali ijrosi uchun zarur huquqiy asoslarni yaratishimiz, investitsiya, yangi texnologiyalarni jalb qilishga yo‘l ochadigan qonunchilikni takomillashtirishimiz kerak. O‘zbekistonning Xitoy bilan tovar ayirboshlash hajmini 30 mlrd. dollarga yetkazish maqsadiga erishish uchun hamkorlikning barcha yo‘nalishlarini izchil rivojlantirish zarur. Bunda parlamentlararo aloqalar alohida ahamiyat kasb etadi. Deputatlar o‘rtasidagi muloqot qonunchilik normalarini uyg‘unlashtirish, investitsiyaviy hamkorlikni rag‘batlantirish va o‘zaro manfaatli munosabatlarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

“Xalq so‘zi”.

O‘zbekiston va Serbiya:

MARKAZIY OSIYO VA BOLQONNI BOG‘LOVCHI STRATEGIK KO‘PRIK

1

O‘zbekiston – Serbiya munosabatlari faqat hukumatlar darajasida emas, balki parlamentlar, vazirliklar, biznes uyushmalari o‘rtasida ham rivojlanmoqda. O‘zbekiston Oliy Majlisi delegatsiyasining Belgradda Prezident A. Vuchich, Serbiya Bosh vaziri o‘rinbosari va iqtisodiyot vaziri Adriyana Mesarovich hamda parlament Spikeri Ana Brnabich bilan uchrashuvlari siyosiy muloqotning izchil tus olayotganidan dalolat beradi. Serbiya tomoni O‘zbekistonni Markaziy Osiyodagi muhim va ishonchli hamkor sifatida baholamoqda. Serbiyaning bir qator vazirlari O‘zbekistonga tashrif buyurgani ham ikki tomonlama muloqotning yuqori darajada ekanini ko‘rsatadi. Shu yil fevral oyida O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasi tomonidan Ishbilarmonlar kengashini tuzish, Belgradda va O‘zbekistonda Savdo uylarini tashkil etish, Serbiyada “Made in Uzbekistan” ko‘rgazmasini o‘tkazish bo‘yicha kelishuvlarga erishildi.

Aytish joizki, Serbiya – Bolqon yarimorolining markazida joylashgan, 6,5 million aholiga va mintaqada muhim geostrategik mavqega ega davlat. 2000-yillarda boshlangan chuqur iqtisodiy va institutsional islohotlardan so‘ng mamlakatda jadal iqtisodiy o‘sish kuzatildi. Yuqori dinamika tufayli Serbiya xalqaro ekspertlar tomonidan “Bolqon yo‘lbarsi” deb ham ataladi. Mamlakatda sanoat ishlab chiqarish sektori bir yilda 4,5 foizga o‘sdi. Ayniqsa, qurilish materiallari ishlab chiqarish, oziq-ovqat va kimyo sanoati kabi kichik tarmoqlar jadal rivojlandi. Serbiyaning texnologik kompaniyalari xalqaro bozorlarda o‘z mavqeini mustahkamlab, 15 foiz o‘sishni ta’minladi. Bu muvaffaqiyat malakali kadrlarning mavjudligi, qulay soliq sharoitlari va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash bilan izohlanadi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar rekord darajadagi 3,2 mlrd. yevroga yetdi.



Bunga Yevropa Ittifoqi, Xitoy va Yaqin Sharq mamlakatlari bilan yangi kelishuvlar imzolanishi, temir yo‘l tarmog‘ining modernizatsiya qilinishi, yangi energetika obyektlarining qurilishi va Dunaydagi portlarni rivojlantirish kabi yirik infratuzilma loyihalarining ishga tushirilishi tufayli erishildi. Bu omil Serbiya eksportining 10 foizga o‘sib, 25 mlrd. dollarga yetishiga olib keldi.

Bugungi kunda Serbiya Yevropa Ittifoqiga (YEI) a’zo bo‘lishni o‘z tashqi siyosatining asosiy maqsadi sifatida belgilagan. YEI Serbiyaning eng yirik savdo va sarmoyaviy hamkori hisoblanadi. Bu esa O‘zbekiston uchun Serbiya bilan hamkorlik orqali nafaqat Bolqon mintaqasiga, balki Yevropa Ittifoqining keng bozorlariga chiqish va qo‘shma sanoat kooperatsiyalarini yo‘lga qo‘yish uchun ulkan imkoniyatlarni ochadi. Markaziy Osiyoning yetakchi davlati va Bolqonning eng dinamik rivojlanayotgan mamlakati o‘rtasida hamkorlikning o‘rnatilishi har ikki tomon iqtisodiyoti va xalqlari uchun manfaat keltirishi, shubhasiz.

O‘zaro ishonch va mushtarak maqsadlar

Serbiyaning O‘zbekiston uchun ahamiyati uning ichki bozori hajmi bilan emas, balki Yevropa va Yevroosiyo iqtisodiy makonlari o‘rtasidagi o‘ziga xos o‘rni bilan belgilanadi. Belgradning Yevropa Ittifoqi, G‘arbiy Bolqon, Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi va Xitoy bozorlari bilan imtiyozli savdo aloqalariga ega ekani mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulotlarga juda ulkan bozorga bojsiz yoki imtiyozli tarzda chiqish sharoitini yuzaga keltiradi. O‘zbekiston uchun bu juda muhim imkoniyatdir. Yurtimiz korxonalari Serbiyada qo‘shma ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etib, o‘zlarining imtiyozli maqomini saqlagan holda Yevropa ta’minot zanjirlariga kirishi mumkin. Bu o‘rinda Serbiya Yevropaga chiqish uchun sanoat va logistika platformasi vazifasini bajaradi.

Serbiyaning yana bir muhim jihati – ilg‘or raqamli iqtisodiyoti va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari. 2025-yilda mamlakatning AKT xizmatlari eksporti 4,5 mlrd. yevrodan oshdi. Ushbu ko‘rsatkich o‘n yil ichida qariyb o‘n barobar oshdi, yillik o‘sish esa 10 foizni tashkil etdi. Bunday natija Serbiyani Yevropadagi muhim texnologik markazlardan biriga aylantirayotir. O‘zbekiston esa raqamli xizmatlar, dasturiy mahsulotlar, sun’iy intellekt va elektron hukumat yo‘nalishlarini jadal rivojlantirmoqda. Ikki mamlakat salohiyatining uyg‘unlashuvi yangi qo‘shma mahsulotlar yaratishda muhim omil bo‘lishi mumkin.

Serbiya yuksak transport-logistika salohiyatiga ega. Unda Dunay daryosi tizimi orqali Qora dengiz portlariga chiqish imkoniyati mavjud. Bundan tashqari, ushbu mamlakatda soliq va bojxona imtiyozlariga ega 15 ta erkin iqtisodiy zona faoliyat yuritadi. O‘zbekiston dengizga chiqish imkoniyati bo‘lmagan davlat sifatida transport yo‘laklarini diversifikatsiya qilishga katta ehtiyoj sezadi. Shu nuqtayi nazardan, Serbiya bilan hamkorlik Yevropa logistika tizimiga kirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Transkaspiy xalqaro transport yo‘nalishi – “O‘rta yo‘lak” bu borada alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu yo‘nalish orqali yuk tashish hajmi 2021-yildagi 840 ming tonnadan 2025-yilga kelib taxminan 4,5-4,7 mln. tonnaga yetgan. Jahon banki prognozlariga ko‘ra, 2030-yilga borib yo‘lakning salohiyati 11 mln. tonnaga yetadi. Kaspiy dengizini kesib o‘tib, keyin Dunay – Qora dengiz tarmog‘i orqali harakatlanadigan yuklar Serbiyada qabul qilinib, YEIning boshqa bozorlariga tarqatilishi mumkin. Shu tariqa Belgrad O‘zbekiston uchun “O‘rta yo‘lak”ning muhim g‘arbiy terminaliga aylanishi ehtimoldan xoli emas. Shu jihatdan, Serbiya Prezidenti Aleksandr Vuchichning ikki mamlakat o‘rtasida imtiyozli savdo rejimini joriy etish taklifi ham istiqbollidir.

O‘zbekistonning eksport raqobatbardoshligi ko‘p jihatdan transport xarajatlari va yetkazib berish muddatlariga bog‘liq. Shu sababli, Serbiya bilan logistika sohasida hamkorlik muhim ahamiyatga molik. Temir yo‘l va avtomobil tashuvlarini muvofiqlashtirish, Kaspiy, Qora dengiz va Dunay portlari bilan bog‘liq yagona logistika zanjirini yaratish, bojxona jarayonlarini raqamlashtirish, multimodal tashuvlar uchun yagona tarif mexanizmlarini ishlab chiqish, O‘zbekiston mahsulotlari uchun Serbiyada logistika va savdo markazlarini tashkil etish maqsadga muvofiq. Havo qatnovi ham bu jarayonni to‘ldirishi tabiiy. “Air Serbia” aviakompaniyasining Toshkent va Samarqandga to‘g‘ridan-to‘g‘ri parvozlar imkoniyati ko‘rib chiqilayotgani ishbilarmonlik va turizm aloqalarini sezilarli darajada kuchaytirishi mumkin.

> *“Serbiyaning O‘zbekiston uchun ahamiyati uning ichki bozori hajmi bilan emas, balki Yevropa va Yevroosiyo iqtisodiy makonlari o‘rtasidagi o‘ziga xos o‘rni bilan belgilanadi. Belgradning Yevropa Ittifoqi, G‘arbiy Bolqon, Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi va Xitoy bozorlari bilan imtiyozli savdo aloqalariga ega ekani mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulotlarga juda ulkan bozorga bojsiz yoki imtiyozli tarzda chiqish sharoitini yuzaga keltiradi. O‘zbekiston uchun bu juda muhim imkoniyatdir.”*

Davlatlararo munosabatlarning burilish nuqtasi

Mehnat migratsiyasi bo‘yicha hamkorlik ham ikki davlat munosabatlarida muhim o‘rin tutadi. Migratsiya to‘g‘risidagi memorandum O‘zbekiston fuqarolarini uyushgan holda ishga yollash, mehnat bozori haqida ma’lumot almashish va noqonuniy migratsiyaning oldini olishga qaratilgan. Bu mexanizmning ahamiyati bir necha jihatda namoyon bo‘ladi. Birinchidan, O‘zbekiston fuqarolarining mehnat huquqlari yaxshiroq himoyalanadi. Ikkinchidan, ishga qabul qilish jarayonlari ochiq va qonuniy tus oladi, noqonuniy vositachilar va odam savdosi xavfi kamayadi. Uchinchidan, Serbiya mehnat bozoridagi talab va O‘zbekistondagi kadrlar salohiyati muvofiqlashtiriladi, mehnat migratsiyasi geografiyasi kengayadi. Va bu tashabbus fuqarolarni xavfsiz huquqiy doirada ish bilan ta’minlash va migratsiya yo‘nalishlarini diversifikatsiyalash imkonini beradi.

Serbiya ham O‘zbekiston bilan hamkorlikdan manfaatdor. O‘zbekiston iqtisodiyoti so‘nggi yillarda sezilarli darajada o‘sdi. Mamlakatimiz iqtisodiyoti 148 mlrd. dollargacha kengaydi, eksport hajmi uch barobar oshdi. 2030-yilga borib eksportni 240 mlrd. dollarga yetkazish maqsadi belgilangan. 2026-yil yakunlari bo‘yicha yalpi ichki mahsulotning 7-8 foizga o‘sishi iqtisodiy faollik yuqori ekanini ko‘rsatadi. Shu bois Serbiya uchun O‘zbekiston qariyb 40 mln. aholi va jadal rivojlanayotgan iqtisodiyotga ega muhim hamkordir. Toshkent Serbiya kompaniyalari uchun mintaqa bozoriga kirish, investitsiyalar joylashtirish va qo‘shma ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish imkonini beradi. Shu ma’noda, ikki mamlakat manfaatlari bir-birini to‘ldiradi.

Iqtisodiy jihatdan qaralganda, O‘zbekiston – Serbiya hamkorligi ikki tomon uchun ham yangi bozorlar eshigini ochadi. Muzokaralarda alohida e’tibor tovar ayirboshlashni ko‘paytirish, mashinasozlik, farmatsevtika, kimyo sanoati, axborot texnologiyalari va raqamlashtirish, agrosanoat majmui, turizm hamda ko‘plab boshqa muhim tarmoqlarda keng ko‘lamli kooperatsiya dasturini tayyorlash masalalariga qaratilgani ham shundan dalolat beradi.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Serbiyaga tashrifi ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqadi. Tashrif davomida ikki tomonlama hamkorlikning yangi yo‘nalishlari belgilanadi, iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalardagi aloqalarni mustahkamlash bo‘yicha kelishuvlarga erishiladi. Ikki davlat o‘rtasidagi hamkorlik iqtisodiy o‘sishga, siyosiy barqarorlikka va madaniy almashinuvga xizmat qiladi.

Ilhomjon TO‘XTASINOV,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti rektori, professor.

Shu yil 1-oktabrdan soliq organlarida xavf darajasi past hamda QQS guvohnomasi faol bo‘lgan tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilariga tovarlarni import qilishda to‘lanadigan QQS summalarini o‘zaro hisobga olish imkoniyati yaratiladi.

www.xs.uz /xalqsuzi.uz @xs_uz

Xalq so‘zi
2026-yil 8-sentyabr

Фракциялар маёти

Dolzarb qonun loyihalari qo‘llab-quvvatlandi

Siyosiy partiyalarning Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyalarining yig‘ilishlari bo‘lib o‘tdi. Ularda quyi palataning navbatdagi majlisi kun tartibiga kiritilishi rejalashtirilayotgan qator qonun loyihalari atroflicha muhokama qilindi.

Fraksiyalar hayoti
Davlat xaridlari tizimi yanada takomillashtiriladi

Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi yig‘ilishida “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga davlat xaridlari tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun loyihasi ko‘rib chiqildi.

Ta’kidlanganidek, davlat xaridlari tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan mazkur hujjat bilan sohadagi tartib-taomillarni zamonaviy talablar asosida



takomillashtirish ko‘zda tutilyapti. Xususan, Jahon savdo tashkilotiga a’zo bo‘lish jarayonini jadallashtirish maqsadida korporativ buyurtmachilar xaridlarida mahalliy ishlab chiqaruvchilarga berilgan ayrim imtiyoz va preferensiyalarni bekor qilish nazarda tutilmoqda.

Yangi o‘zgartishlarning yana bir muhim jihati – davlat xaridlari ustidan parlament nazoratini kuchaytirish. Davlat byudjeti ijrosi to‘g‘risidagi hisobotlarga davlat buyurtmachilari amalga oshirgan xaridlar natijalari, jumladan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar haqidagi ma’lumotlarni kiritish taklif etilmoqda. Shuningdek, davlat xaridlari jarayonida yuzaga keladigan nizolarni hal etish mexanizmlarini soddalashtirish nazarda tutilgan.

Deputatlar mazkur qonun loyihasining qabul qilinishi davlat xaridlarida shaffoflikni oshirish, raqobat muhitini kengaytirish va tadbirkorlik subyektlarining xarid jarayonlarida faol ishtirokini rag‘batlantirishga xizmat qilishini qayd etishdi.

Yig‘ilishda qonun loyihasi fraksiya a’zolari tomonidan qo‘llab-quvvatlandi.

Odil sudlov – inson manfaatlari himoyasining garovi

“Milliy tiklanish” demokratik partiyasi fraksiyasi yig‘ilishida “Sudyalarning maqomi to‘g‘risida”gi qonun loyihasi atroflicha muhokama qilindi.

Qayd etilganidek, sudyalarning o‘z zimmasidagi majburiyatlarini samarali va sifatli amalga oshirishida zarur resurslar – huquqiy, moddiy va ijtimoiy kafolatlar ham muhim. Hozirgi kunda bu kasb egalarining maqomini belgilab beruvchi normalar sud tizimining tashkiliy-tuzilmaviy jihatini tartibga soluvchi hujjat – “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonun bilan qamrab olingan. Lekin bugungi o‘zgarishlar sudyaning yuksak maqomiga munosib kafolatlarni alohida qonun darajasida aks ettirish ehtiyojini paydo qilmoqda.

Ushbu zaruratdan kelib chiqib ishlab chiqilgan mazkur qonun loyihasida sudyalik uchun yosh cheklovi amaldagi 35 dan 30 yoshga tushirilishi nazarda tutilmoqda. Shu bilan birga, sudyani 10-yillik muddatga tayinlash tartibi bekor qilinib dastlab 5-yilga, keyinchalik muddatsiz davrga tayinlash tartibini joriy etish taklif qilinmoqda.

Deputatlar loyihaga oid o‘z fikr-mulohazalari, takliflarini bildirdi. Ta’kidlanganidek, mazkur o‘zgarishlar sud hokimiyati va sudyalarning mustaqilligi kafolatlarini yanada kuchaytirish, sudlar apparati faoliyati samaradorligi hamda odil sudlov sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Loyihani ishlab chiqishda xorijiy davlatlarning sudyalar maqomining huquqiy asoslarini qonunchilik darajasida mustahkamlash bo‘yicha tajribasi o‘rganilgani aytildi.

Muhokamadan so‘ng qonun loyihasi qo‘llab-quvvatlandi.

Dasturiy maqsadlarga hamohang

O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi yig‘ilishida “Sudyalarning maqomi to‘g‘risida”gi qonun loyihasi qizg‘in muhokama qilindi.

Qonun loyihasida sudyaning almashtirilmasligi uning mustaqilligining muhim kafolati sifatida mustahkamlanmoqda. Shu bilan birga, sudyalarning faoliyatini baholash, kasbiy o‘sishi, rotatsiya qilinishi hamda intizomiy javobgarligi bilan bog‘liq huquqiy mexanizmlar ham takomillashtirilmoqda.

Loyihada ilg‘or xorijiy tajribalar asosida milliy qonunchilikka “iste’fodagi sudya” institutini joriy etish, sudyalarning ijtimoiy kafolatlarini yanada kuchaytirish kabi muhim yangiliklar ham o‘z aksini topgan. Bundan tashqari, mamlakatimiz sud tizimida muhim islohotlar amalga oshirilgan 21-fevral sanasini Sud organlari xodimlari kuni sifatida belgilash taklif etilmoqda.

Fraksiya a’zolarining yakdil fikriga ko‘ra, mazkur qonun loyihasi sudyalarning mustaqilligini ta’minlash bilan bir qatorda fuqarolarning sudga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash va har bir insonning huquqi qonun asosida himoya etilishini kafolatlashga xizmat qiladi.

Fraksiya yig‘ilishida qonun loyihasi atroflicha muhokama etilib, deputatlar tomonidan konseptual jihatdan qo‘llab-quvvatlandi.

Ochiqlik va shaffoflik

O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi yig‘ilishida dastlab “Sudyalarning maqomi to‘g‘risida”gi qonun loyihasi ko‘rib chiqildi. Ta’kidlanganidek, hujjat sudyalarning mustaqilligini ta’minlash, ularning huquqiy maqomini aniq belgilash hamda sud tizimida kadrlar salohiyatini yanada oshirishga qaratilgan.

Qonun loyihasida Oliy sud va quyi sudlar tuzilmasini belgilangan shtat birliklari doirasida mustaqil tasdiqlash huquqini Oliy sud raisiga berish, sud apparati xodimlarining mehnat faoliyati bilan bog‘liq cheklovlarni belgilash kabi normalar nazarda tutilmoqda.

Deputatlar ta’kidlaganidek, sudyalar mustaqilligi va mas’uliyatini kuchaytirish, odil sudlovning huquqiy kafolatlarini mustahkamlash aholi huquq va manfaatlarini ishonchli himoya qilishda muhim ahamiyatga ega.

Yig‘ilishda davlat xaridlari sohasida parlament nazoratini kuchaytirishga qaratilgan



qonun loyihasi ham muhokama qilindi.

Unga ko‘ra Davlat byudjeti ijrosi to‘g‘risidagi hisobotlar tarkibiga davlat buyurtmachilari tomonidan amalga oshirilgan davlat xaridlari natijalari, jumladan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar asosida amalga oshirilgan xaridlar haqidagi ma’lumotlarni kiritish taklif etilmoqda.

Deputatlar mazkur normalar davlat mablag‘laridan samarali va maqsadli foydalanish ustidan parlament nazoratini kuchaytirish, davlat xaridlarida ochiqlik va shaffoflikni ta’minlashga xizmat qilishini urg‘ulashdi. Shuningdek, davlat xaridlari jarayonida yuzaga keladigan nizolarni hal etish tartibini soddalashtirishga qaratilgan takliflar ham ko‘rib chiqildi.

Yig‘ilishda fraksiya a’zolarining saylov okruglarida saylovchilar va aholi vakillari, tadbirkorlik subyektlari bilan o‘tkazgan uchrashuvlari, shuningdek, hududlardagi ijtimoiy soha obyektlarini o‘rganish natijalari to‘g‘risidagi axborotlari ham tinglandi.

Muhokama yakunida kun tartibidagi qonun loyihalari elektorat manfaatlaridan kelib chiqib, qo‘llab-quvvatlandi.

Ustuvor vazifalar – kun tartibida

O‘zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi yig‘ilishida dastlab Prezidentimizning mamlakatimiz mustaqilligining 35-yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqidan kelib chiqadigan fraksiya oldidagi ustuvor vazifalar muhokama qilindi.

Ta’kidlanganidek, davlatimiz rahbari o‘z nutqida mamlakatimizning mustaqillik yillarida erishgan yutuqlar bilan bir qatorda kelgusi taraqqiyot uchun oldimizda turgan yangi va muhim vazifalarni belgilab berdi. Ayniqsa, kelgusi o‘n yillikni milliy yuksalish davri sifatida belgilab, 7 ta milliy dasturni amalga oshirish vazifasini ilgari surdi.

Mazkur dasturlar orasida tabiatga munosabatni tubdan o‘zgartirish, suvdan oqilona va tejamkorlik bilan foydalanish, “Yashil makon” umummilliy loyihasini yangi sifat bosqichiga olib chiqish kabi ekologik yo‘nalishlar fraksiya faoliyati uchun ham muhim dasturilamal bo‘lishi qayd etildi.

Yig‘ilishda sanoat va radiatsiya xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi ham ko‘rib chiqildi.

Mazkur qonun loyihasi bilan amaldagi qonun hujjatlariga sanoat va radiatsiyaviy xavfsizlik yo‘nalishlarida davlat nazorati tizimini hamda ushbu sohalardagi huquqiy munosabatlarni takomillashtirishga qaratilgan o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritilmoqda.

Deputatlarning fikriga ko‘ra, ushbu qonun loyihasining qabul qilinishi sanoat xavfsizligi va radiatsiyaviy xavfsizlikka bevosita aloqador organlarning vakolatlarini aniqlashtirishga, mazkur sohalardagi qoidalarni va boshqa talablarni buzganlik uchun ta’sir choralarini qo‘llashda mutanosiblik va yetarlilik prinsiplariga rioya etilishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Muhokama yakunida deputatlar qonun loyihasini qo‘llab-quvvatladi.

“Xalq so‘zi”.

TOSHKENTDA – ZAMONAVIY SAN’AT MARKAZI

Kuni kecha O‘zbekistondagi ilk doimiy zamonaviy san’at markazi – “CCA Tashkent” o‘z ishini boshladi.

1912-yilda qurilgan tarixiy binoda joylashgan ushbu markaz o‘zida ko‘rgazma maydonlari, kutubxona, konsept-do‘kon, restoran, ta’lim maydonlarini jamlagan bo‘lib, u turli uchrashuv va tadqiqotlar uchun jamoatchilikni birlashtirgan yangi madaniy muassasadir.

Madaniyat



Mazkur binoni restavratsiya qilish bo‘yicha me’moriy yechimi dunyoga mashhur “Studio Ko” me’morlik byurosi tomonidan loyihalashtirilgan bo‘lib, u zamonaviy madaniy markazga aylantirilganiga qaramay sanoat xususiyati saqlab qolingan.

Qayd etish joizki, mamlakatimizda Prezidentimiz tashabbusi bilan madaniyat, san’at va xalqaro madaniy hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar izchil amalga oshirilmoqda. Xususan, ushbu markaz ham Yurtboshimiz g‘oyasi asosida vujudga kelgani so‘zimizni yaqqol tasdiqlaydi.

Toshkent zamonaviy san’at markazi O‘zbekiston madaniyat va san’atni rivojlantirish jamg‘armasining loyihasi bo‘lib, bir vaqtning o‘zida Toshkent va Samarqandda faoliyat yuritadi. U yangi badiiy loyihalarni yaratish, xalqaro hamkorlik hamda madaniy almashinuv uchun muhim platformaga aylanishi, o‘zbek rassomlari va global auditoriya uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochishi bilan diqqatga sazovor.

– Ushbu markazning ochilishi O‘zbekiston madaniy infratuzilmasini rivojlantirish hamda barqaror zamonaviy san’at ekotizimini yaratish bo‘yicha uzoq muddatli qarashlarimizni amalga oshirishda muhim bosqich hisoblanadi, – deya ta’kidladi O‘zbekiston madaniyat va san’atni rivojlantirish jamg‘armasi raisi Gayane Umerova. – U kelajakda rassomlar, tadqiqotchilar, yetakchi mutaxassislar va turli jamoat vakillari uchrashadigan maskanga aylanadi. Biz nafaqat zamonaviy san’atni namoyish etadigan, balki ta’lim, tadqiqot va xalqaro hamkorlik orqali uning rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydigan muassasa tashkil etdik. O‘ylaymanki, intilishlarimiz yaqin orada o‘z mevalarini bera boshlaydi.

Markazning ochilish marosimida mehmonlar muassasa faoliyatining ajralmas qismiga aylanadigan muntazam ko‘rgazmalar, panel muhokamalar, ma’ruzalar, konsertlar, spektakllar, film namoyishlari va ta’lim tadbirlarining boshlanishini belgilovchi dastur bilan tanishishdi.

Toshkent zamonaviy san’at markazining ilk ko‘rgazmasi doktor Sara Raza rahbarligidagi “Hikmat” ko‘rgazmasi bo‘ldi. U mahalliy an’analar, ma’naviy meros va zamonaviy badiiy amaliyotlarning kesishishini o‘rganuvchi rassomlarning asarlarini o‘zida birlashtirgan.

Ushbu ko‘rgazmadan Muhannad Shono, Nari Uord, Shohrux Rahimov, Tarik Kisvanson, Kimsuja, Ali Sherriy, Nadya Kaabi-Linke, Vladimir Pan, Daribay Saipov, Baxtiyor Soipovning asarlari joy olgan bo‘lib, ularning ijodiy ishlari I. V. Saviskiy nomidagi Qoraqalpog‘iston davlat san’at muzeyi to‘plamidan taqdim etilgan.

Shuningdek, markazda 61-Venetsiya zamonaviy san’at biyennalesining rasmiy parallel loyihasi o‘laroq “Tafakkur asboblari” ko‘rgazmasi ham taqdim etildi. Mazkur ko‘rgazma hozirda Venetsiyadagi Franketti saroyida bo‘lib o‘tmoqda va joriy yilning 22-noyabrigacha tashrif buyuruvchilar uchun ochiq. Bu loyiha Markaziy Osiyoning nomdor rassomlaridan biri Vyacheslav Axunovning ijodiga bag‘ishlangan hamda Toshkent zamonaviy san’at markazining birinchi xalqaro loyihasi hisoblanadi.

Albatta, markazning kelajak rejalari ham ulkan. Jumladan, 2027-yilda markaz tomonidan



Ilya va Emiliya Kabakovlarning shaxsiy ko‘rgazmasi taqdim etilishi, Zelfira Tregulova mehmon mutaxassis sifatida qatnashishi rejalashtirilgan. Shuningdek, markaz art-rezidensiya dasturini ham kengaytirmoqda. Ya’ni Toshkentda faoliyat yuritib kelayotgan ikkita rezidensiyadan tashqari sentabr oyida Samarqandda ham yangi art-rezidensiya ochiladi. Yangi san’at asarlarini yaratishga qaratilgan Toshkent dasturidan farqli o‘laroq Samarqanddagi art-rezidensiya faoliyati tadqiqotlar, fanlararo almashinuv hamda shaharning boy tarixiy va madaniy merosi bilan aloqalarga bag‘ishlanadi.

Shu yil 4-sentabrdan 14-sentabrgacha Samarqanddagi art-rezidensiyada “Arxitektura assotsiatsiyasi ko‘chma maktabi: Samarqandning iqlim kartografiyalari” dasturi o‘tkazilmoqda. Ushbu dastur Samarqand tarixi nuqtayi nazaridan iqlim, madaniy meros va koinot bilimlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganishga qaratilgan ommaviy ma’ruzalar, tadqiqot yo‘nalishlari hamda amaliy seminarlarni birlashtiradi. Unda me’morlar, rassomlar, tarixchilar, olimlar va tadqiqotchilar ishtirok etmoqda.

Rahmatjon BOBOJONOV
(“Xalq so‘zi”).

Qulaylik

KO‘KDALANING GAVJUM MASKANI

Qashqadaryo viloyatining qator hududlarida 7/24 tartibida ishlaydigan o‘nlab ko‘chalar mavjud. Aholi kunning istalgan vaqtida bu yerda sayr qilishi, ovqatlanishi yoki zarur xaridni amalga oshirishi mumkin.



Kuni kecha Ko‘kdala tumanining markazida joylashgan ko‘cha ham tunu kun ishlaydigan savdo va xizmat ko‘rsatish maskaniga aylantirildi.

– Bu yil mahallamiz ahli uchun juda quvonchli yil bo‘ldi, – deydi “Ko‘kdala” MFY raisi Umar Julbulov. – Mahallamiz “Yangi O‘zbekiston qiyofasidagi mahalla” dasturiga kiritilib, loyiha doirasida katta qurilish-bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi. Erkin Vohidov nomli ko‘chamiz 7/24 tartibida ishlaydigan ko‘chalar toifasiga o‘tkazildi. Bu yerda aholi uchun barcha qulayliklar muhayyo etilgan.

Ko‘kdala mahallasida 2,6 kilometr uzunlikdagi yo‘lga asfalt qoplama yotqizilib, uning har ikki tomoni bo‘ylab 5,2 km. uzunlikdagi piyodalar yo‘laklari barpo qilindi, 90 ta yoritish chirog‘i o‘rnatildi. Ko‘chada 42 ta yangi savdo va xizmat ko‘rsatish shoxobchasi faoliyat boshlagan bo‘lsa, avvaldan ishlab kelayotgan 61 ta subyektning imkoniyatlari kengaytirildi. Natijada 150 ga yaqin yangi ish o‘rinlari yaratildi.

Jahongir BOYMURODOV
(“Xalq so‘zi”).

YANGI O‘QUV YILIGA MUNOSIB TUHFA

Xorazm viloyatida uchta oliy o‘quv yurti yangi binolarga ega bo‘ldi.

Xususan, Urganch davlat universitetining 1800 o‘rinli o‘quv binosi foydalanishga topshirilib, talabalar uchun zamonaviy auditoriyalar bilan bir qatorda, ilmiy izlanish va innovatsion g‘oyalarni amalga oshirish uchun zarur sharoitlar yaratilgan. Ayniqsa, sun’iy intellekt laboratoriyasining tashkil etilgani alohida ahamiyatga ega.

Imkoniyat

– Yaqinda universitetimizda davlat-xususiy sheriklik asosida 5 qavatli, 400 o‘rinli talabalar turarjoyi hamda 350 o‘rinli zamonaviy sport kompleksi foydalanishga topshirildi, – deydi universitet rektori Feruza Madrahimova. – Yangi o‘quv binosi, zamonaviy laboratoriyalar, talabalar turarjoylari va boshqa infratuzilma obyektlari universitetning ilmiy hamda ta’lim salohiyatini yuksaltirish uchun xizmat qiladi.

Urganch davlat pedagogika institutida 1000 o‘rinli o‘quv binosining foydalanishga topshirilishi yangi o‘quv yiliga talabalar uchun munosib sovg‘a bo‘ldi.

Shuningdek, Xorazmning boy madaniy merosi va milliy raqs san’atini yanada rivojlantirishga xizmat qiladigan nufuzli oliy ta’lim muassasasi – O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasining Urganch filiali o‘z faoliyatini yangi, zamonaviy binoda boshladi.

U 200 nafar talabaga mo‘ljallangan bo‘lib, o‘zining 70 o‘rinli yotoqxonasiga ham ega. Talabalarning kasbiy mahoratini oshirish uchun 4 ta maxsus raqs xonasi, uchta yakka tartibda shug‘ullanish uchun mashg‘ulotlar xonasi mavjud. 160 o‘rinli zal turli madaniy-ma’rifiy tadbirlar, ko‘rik-tanlovlar, ijodiy uchrashuvlarni yuqori saviyada o‘tkazish imkonini beradi. Bugungi kunda filialda ta’limning magistratura bosqichi ham yo‘lga qo‘yildi. Bu esa zamonaviy bilim va ilmiy salohiyatga ega kadrlarni tayyorlashga keng yo‘l ochadi.

Odilbek ODAMBOYEV
(“Xalq so‘zi”).

Endilikda yurtimizda har yili sentabr – dekabr oylarida “Eng innovatsion g‘oya” respublika tanlovi o‘tkaziladi.

Xalq so‘zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi – 429. Buyurtma G-942. 19 207 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A-2.
Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma’lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e’lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-8788

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir A.Aliqulov.
Musahhih Sh. Marshabboyev.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko‘chasi, 41. O‘zA yakuni – 00.41 Topshirildi – 00.41 1 2 3 4 5 6